



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali  
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.  
Litsenziya raqami: №049864





MUNDARIJA			
1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta‘siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Vaxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга таҳлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne‘matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187





26.	Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o‘g‘li	O‘zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo‘llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O‘zbekistonda davlat qarz portfelini risk-dagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durдона Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamiy Omonullo Ne‘matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta‘minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo‘llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog‘liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg‘unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otobek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o‘g‘li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o‘zbekiston sharoitida qo‘llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdulkhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller’s brand equity model and Aaker’s brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo‘nalishlari	310
43.	Jo‘rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317
44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365





52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko'rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo'llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug'bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo'llari	395
57.	Xamdamiy Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G'anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo'yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G'ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'rnini Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari	451
63.	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тутган ўрни	459
64.	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari	471
65.	Xadjibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funktsiya va prinsiplari	477
66.	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67.	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko'rsatkich asosida O'zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68.	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	501
69.	Sulaymanov Akrom Isamiddinovich	O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibligi va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70.	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xasanova Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71.	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526





**O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA UZOQ MUDDATLI MOLIYALASHTIRISHNING  
TARKIBIY NOMUTANOSIBLIGI VA SSENARIYLI ERTA OGOHLANTIRISH  
CHEGARALARI**

**Sulaymanov Akrom Isamiddinovich**

*G.V. Plexanov nomidagi  
Rossiya iqtisodiyot universitetining  
Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi  
«Mikrokreditbank» ATB Toshkent shahar  
bosh boshqarmasi boshlig‘i  
E-mail: Info@reu.uz  
ORCID: 0009-0000-5397-2506*

***Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston bank tizimida uzoq muddatli kreditlar hajmi bilan ularni barqaror moliyalashtiruvchi manbalar o‘rtasidagi tarkibiy nomutanosiblik baholanib, 2027–2030-yillar uchun bazaviy, optimistik va stress ssenariylari asosida erta ogohlantirish chegaralari ishlab chiqilgan. Tadqiqotning boshlang‘ich bazasi sifatida 2026-yil 1-yanvar holatidagi rasmiy bank ko‘rsatkichlari hamda 2018–2025-yillardagi dinamik qatorlardan foydalanildi. Rekursiv ssenariy hisob-kitoblari majburiyatlar, uzoq muddatli moliyalashtirish, kredit portfeli va uzoq muddatli kreditlar trayektoriyalarini, shuningdek sof foiz marjasi, aktivlar rentabelligi, kapital yetarliligi, sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti, muammoli kreditlar va qayta moliyalashtirish xavfini o‘zaro bog‘liq holda baholash imkonini berdi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yilda uzoq muddatli moliyalashtirish hajmi bazaviy ssenariyda 445,3 trln so‘mga, optimistik ssenariyda 605,5 trln so‘mga yetishi mumkin. Stress ssenariysida 2029-yilda NSFR 98 foizgacha pasayishi, muammoli kreditlar 7 foizga ko‘tarilishi va resurslarning to‘liq qiymati 20 foizgacha oshishi mumkin. Maqolaning ilmiy yangiligi bank tayyorligi indeksi yoki moliyalashtirish tarkibini optimallashtirishdan farqli ravishda tizim darajasidagi “yashil–sariq–qizil” erta ogohlantirish konturini taklif etishdan iborat. Ushbu kontur Markaziy bank, tijorat banklari va bozor infratuzilmasi institutlari uchun choraklik monitoring va tiklanish rejasini ishga tushirish mezonlarini belgilaydi.*

***Kalit so‘zlar:** uzoq muddatli moliyalashtirish, tarkibiy nomutanosiblik, ssenariy prognozi, stress-test, NSFR, qayta moliyalashtirish xavfi, valyuta xavfi, muammoli kreditlar, erta ogohlantirish chegaralari.*

**СТРУКТУРНОЕ УЛУЧШЕНИЕ ДОЛГОСРОЧНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В  
БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКИСТАНА И ПРЕДЕЛЫ СЦЕНАРИО-  
ОРИЕНТИРОВАННОГО РАННЕГО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ**

**Сулейманов Акром Исамиддинович**

*независимый исследователь  
Ташкентского филиала Российского  
экономического университета им. Плеханова  
руководитель Ташкентского городского  
главного отдела АОКБ «Микrokредитбанк»  
E-mail: Info@reu.uz  
ORCID: 0009-0000-5397-2506*

***Аннотация.** В статье оценивается структурный дисбаланс между объемом долгосрочных кредитов и их устойчивыми источниками финансирования в банковской системе Узбекистана, а также разрабатываются пороговые значения раннего*





предупреждения на основе базового, оптимистического и стрессового сценариев на 2027–2030 годы. В качестве исходной базы исследования использованы официальные банковские показатели по состоянию на 1 января 2026 года и динамические ряды за 2018–2025 годы. Рекурсивные сценарные расчеты позволили оценить траектории обязательств, долгосрочного финансирования, кредитного портфеля и долгосрочных кредитов, а также чистой процентной маржи, рентабельности активов, достаточности капитала, коэффициента чистого стабильного фондирования, проблемных кредитов и риска рефинансирования. По расчетам, в 2030 году объем долгосрочного финансирования может достичь 445,3 трлн сумов в базовом сценарии и 605,5 трлн сумов в оптимистическом сценарии. В стрессовом сценарии показатель NSFR может снизиться до 98 процентов в 2029 году, проблемные кредиты могут увеличиться на 7 процентов, а полная стоимость ресурсов может возрасти до 20 процентов. Научная новизна статьи заключается в предложении системной «зелено-желто-красной» шкалы раннего предупреждения, в отличие от индекса готовности банков или оптимизации структуры финансирования. Эта шкала определяет критерии для запуска ежеквартального плана мониторинга и восстановления для Центрального банка, коммерческих банков и институтов рыночной инфраструктуры.

**Ключевые слова:** долгосрочное финансирование, структурный дисбаланс, сценарный прогноз, стресс-тест, NSFR, риск рефинансирования, валютный риск, проблемные кредиты, пороговые значения раннего предупреждения.

## **STRUCTURAL IMBALANCE AND SCENARIO-BASED EARLY-WARNING THRESHOLDS FOR LONG-TERM FUNDING IN UZBEKISTAN'S BANKING SYSTEM**

**Sulaymanov Akrom Isamiddinovich**

*Independent Researcher  
Tashkent Branch of Plekhanov  
Russian University of Economics  
Head of the Tashkent City Main  
Department of JSCB “Microcreditbank”  
E-mail: Info@reu.uz  
ORCID: 0009-0000-5397-2506*

**Abstract.** The article evaluates the structural imbalance between long-term loans and stable funding sources in Uzbekistan's banking system and develops scenario-based early-warning thresholds for 2027–2030. The empirical baseline combines official banking indicators as of 1 January 2026 with dynamic evidence for 2018–2025. A recursive scenario framework is used to project liabilities, long-term funding, total loans and long-term loans, while jointly tracing net interest margin, return on assets, capital adequacy, the net stable funding ratio, non-performing loans and refinancing risk. The results indicate that long-term funding may reach UZS 445.3 trillion under the baseline scenario and UZS 605.5 trillion under the optimistic scenario by 2030. Under the stress scenario, the NSFR may fall to 98 percent in 2029, the NPL ratio may rise to 7 percent and the full hedged cost of funding may approach 20 percent. The contribution of the article differs from bank-readiness indices, institutional funding frameworks and funding-structure optimization. It proposes a system-level green–amber–red early-warning contour linking funding share, average maturity, full cost, foreign-currency exposure, NSFR, NPLs and refinancing risk to predefined management responses. The proposed framework can support quarterly supervisory monitoring, bank asset-liability committees and recovery planning.

**Keywords:** long-term funding, structural imbalance, scenario forecasting, stress testing, NSFR, refinancing risk, foreign-exchange risk, non-performing loans, early-warning thresholds.





### **Kirish**

Jahon moliya bozorlarida yuqori foiz stavkalari, rivojlanayotgan davlatlar risk mukofotining o'zgaruvchanligi va kapital oqimlarining beqarorligi uzoq muddatli bank resurslarini shakllantirishni murakkablashtirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot konferensiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish bo'shlig'i trillionlab dollar bilan o'lganini qayd etadi [18]. Bankning investitsion, infratuzilmaviy, ipoteka va korporativ kreditlarni moliyalashtirish salohiyati nafaqat jalb qilingan mablag'lar miqdoriga, balki ularning muddati, valyutasi, narxi, kreditorlar tarkibi va qayta moliyalashtirilish imkoniyatiga ham bog'liq. Xalqaro hisob-kitoblar banki tadqiqoti ulgurji depozitlar chiqib ketish xavfi kuchayganda banklar kredit stavkalarini oshirishi va kredit muddatlarini qisqartirishini ko'rsatadi [8]. Bu holat uzoq muddatli aktivlarning qisqa muddatli va o'zgaruvchan manbalar hisobidan moliyalashtirilishi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash bilan moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni izdan chiqarishi mumkinligini anglatadi.

O'zbekistonda investitsiya talabining jadallashuvi bank kreditlari muddatining uzayishini talab qilmoqda. 2026-yil 1-yanvar holatiga bank tizimi aktivlari 924,8 trln so'mni, kreditlar 604,0 trln so'mni, depozitlar 417,3 trln so'mni va kapital 135,3 trln so'mni tashkil etdi [1].

Uzoq muddatli kreditlar 531,8 trln so'mga yoki kredit portfelining 88 foiziga yetgan bo'lsa-da, kapital va bevosita aniqlanadigan barqaror uzoq muddatli manbalar ularning atigi 64,2 foizini qoplagan. Natijada hisoblangan tarkibiy nomutanosiblik 190,5 trln so'mni tashkil etgan. Mazkur nomutanosiblik bank tizimida likvidlik me'yorlari hozircha bajarilayotgan bo'lsa ham, majburiyatlar muddatining aktivlar muddatiga nisbatan qisqaligi va yirik qaytarishlar bir davrda jamlanishi kelgusida qayta moliyalashtirish xavfini kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish banklar uchun xalqaro va mahalliy kapital bozorlariga kirish, milliy valyutadagi obligatsiyalar, yashil moliyalashtirish va islomiy vositalarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Rasmiy baholashlarga ko'ra, markaz 2030-yilgacha iqtisodiyotga qo'shimcha 20–25 mlrd AQSh dollari jalb etilishiga ko'maklashishi mumkin [3]. 2026-yil 30-martdagi PF–48-son Farmon markazning huquqiy va institutsional asoslarini belgiladi [4], 2026-yil 27-martdagi O'RQ–1126-son Qonun esa islom bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan normalarni kuchga kiritdi [5].

Biroq yangi moliyaviy kanallarning mavjudligi ularning avtomatik ravishda arzon, uzoq muddatli va xavfsiz resursga aylanishini anglatmaydi. Valyuta kursi, xedjlash xarajati, reyting va bozor “oynasi” yomonlashganda nominal jihatdan jozibador tashqi qarz bank marjasi va kapitaliga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu sababli uzoq muddatli moliyalashtirishni baholashda bitta nuqtaviy prognoz yetarli emas. Bank tizimi bir vaqtning o'zida foiz, valyuta, kredit, likvidlik va qayta moliyalashtirish zarbalariga duch kelishi mumkin. Xalqaro Valyuta Jamg'armasining O'zbekiston bo'yicha moliyaviy sektor barqarorligi baholashi stress-testlash, muammoli aktivlarni aniqlash va inqirozga tayyorgarlik mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurligini qayd etadi [6]. Makro stress-testlash bo'yicha texnik hisobot ham kredit xavfi, foyda va zarar komponentlari hamda ko'p davrli ssenariylarni birlashtirishni tavsiya qiladi [7]. Demak, uzoq muddatli resurslarni kengaytirish jarayoni monitoring, ogohlantirish chegaralari va oldindan belgilangan tiklanish choralari tayanishi kerak.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli kreditlar bilan barqaror moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi tarkibiy nomutanosiblikni aniqlash, 2027–2030-yillar uchun uchta ssenariyda uning moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash hamda ssenariyli erta ogohlantirish chegaralarini taklif etishdan iborat. Maqola avvalgi tadqiqotlardan banklarning moliyalashtirishga tayyorlik indeksini hisoblamasligi, Toshkent xalqaro moliya markazi orqali resurs jalb etishning tashkiliy mexanizmini takrorlamasligi va instrumentlar ulushini optimallashtirmasligi bilan farq qiladi. Tadqiqotning mustaqil natijasi tizim darajasida yettita ko'rsatkichni birlashtiruvchi ogohlantirish konturi va ular bo'yicha boshqaruv choralari ishlab chiqishdir.





### Adabiyotlar sharhi

Bank moliyalashtirishining iqtisodiy mazmuni moliyaviy vositachilik va muddatlar transformatsiyasi nazariyasiga asoslanadi. Banklar nisbatan likvid majburiyatlarni jalb qilib, ularni uzoq muddatli va kamroq likvid aktivlarga joylashtiradi. Ushbu jarayon investitsiyalarni moliyalashtiradi, lekin aktivlar va majburiyatlar muddatlari o'rtasidagi haddan tashqari tafovut likvidlik va qayta moliyalashtirish xavfini yuzaga keltiradi. Kladaakis, Chen va Bellos 84 mamlakatdagi 825 bank ma'lumotlari asosida ulgurji moliyalashtirishning bank likvidligini yaratishdagi ta'siri resurs muddatiga qarab farqlanishini aniqlagan [9]. Ularning xulosasi uzoq muddatli manbani faqat hajm bilan emas, balki barqarorlik xususiyati bilan baholash zarurligini ko'rsatadi.

Fudulache va Goetz uzoq muddatli depozitlar banklarning markaziy bank mablag'lariga talabini pasaytirishini ko'rsatadi [10]. Cappelletti va hammualliflar foiz stavkalari oshgan sharoitda tez chiqib ketuvchi depozitlarning kredit taklifiga salbiy ta'sirini aniqlagan [11].

Müller va hammualliflar esa nobank moliya institutlarining ulgurji depozitlari bo'yicha “yugurish” xavfi banklarning kredit muddati va likvidlik zaxirasiga ta'sir qilishini asoslagan [8].

Ushbu tadqiqotlar moliyalashtirish manbalarining shartnomaviy muddati bilan ularning amaldagi xulq-atvor barqarorligi bir xil tushuncha emasligini ko'rsatadi.

Moliyalashtirish barqarorligini tizimli baholashda sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (Net Stable Funding Ratio - NSFR) alohida ahamiyatga ega. Khalifeh, Benhmad, El Moussawi va Tarazi Yevropa banklari misolida NSFR bilan bank barqarorligi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan [12].

Bazel qo'mitasining 2023-yilgi bank inqirozlari bo'yicha hisobotida raqamli kanallar va yuqori konsentratsiyalangan sug'urtalanmagan depozitlar likvidlik zarbasini keskin tezlashtirishi qayd etilgan [13].

Shu bois NSFR me'yorining bajarilishi muhim bo'lsa-da, kreditorlar konsentratsiyasi, valyuta tarkibi va qaytarishlar kalendari bilan to'ldirilishi lozim.

Rivojlanayotgan bozorlarda uzoq muddatli resurslarni jalb etish kapital bozorining chuqurligi va institutsional investorlarning mavjudligiga bog'liq. Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining 2026–2030-yillarga mo'ljallangan moliya sektori strategiyasi mahalliy valyutadagi kapital bozorlarini, qarz vositalarini va xususiy resurslarni safarbar etishni moliyaviy barqarorlikning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilaydi [14]. Biroq bozor moliyalashtirishi oshgani sari kredit reytingi, axborot oshkoraligi, xedjlash va investorlar bazasini diversifikatsiya qilish talablari ham kuchayadi. Jahon banki obligatsiyalar va kredit portfellarini sek'yuritizatsiya qilish kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish imkoniyatini kengaytirishini ta'kidlaydi [17]. Shuning uchun uzoq muddatli tashqi mablag'lar milliy valyutadagi daromad oqimlari bilan moslashtirilmasa, ularning muddati uzun bo'lsa ham, bankning umumiy riskini kamaytirmasligi mumkin.

O'zbekiston bo'yicha empirik tadqiqotlarda kreditlar va depozitlar nisbatining bank natijalariga ta'siri, likvidlik muammolari va moliyaviy resurslarni ko'paytirish masalalari o'rganilgan. Isakov 32 bankning 2017–2021-yillardagi ma'lumotlari asosida kreditlar/depozitlar nisbatining rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sirini baholagan [15]. Ruziyev qisqa muddatli majburiyatlar ulushi va depozitlarning beqarorligini likvidlik xavfining muhim omillari sifatida ko'rsatgan [16]. Ushbu natijalar bankning kredit portfeli o'sishi depozit bazasi va boshqa barqaror manbalar o'sishidan tezlashganda, qo'shimcha resursning qiymati oshishi va kreditlash salohiyati cheklanishini tasdiqlaydi.

Mavjud adabiyotlarda moliyalashtirish manbalarining alohida turlari, NSFR yoki stress-test natijalari keng o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida uzoq muddatli kreditlar va aniqlanadigan barqaror manbalar o'rtasidagi miqdoriy tafovutni 2027–2030-yillar ssenariylari bilan bog'lab, boshqaruv qarorini avtomatik ravishda faollashtiradigan chegaralar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldiradi: ssenariy natijalari





oddiy prognoz sifatida emas, balki “yashil–sariq–qizil” monitoring konturiga aylantiriladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018–2025-yillardagi bank tizimi ko‘rsatkichlari, 2026-yil 1-yanvar holatidagi aktivlar, kreditlar, depozitlar va kapital ma‘lumotlari, pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027–2028-yillarga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari [1; 2], shuningdek Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, Xalqaro hisob-kitoblar banki va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki materiallari tashkil etadi. Prognoz gorizonti 2027–2030-yillarni qamrab oladi. 2026-yil ichidagi tezkor ko‘rsatkichlar yakunlangan yillik kuzatuv bo‘lmagani sababli model bazasiga kiritilmagan.

Tarkibiy nomutanosiblik uzoq muddatli kreditlar bilan ularni qoplashga qodir kapital va bevosita aniqlanadigan uzoq muddatli manbalar o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi:  $SG_t = LTCR_t - (K_t + LTF_t)$ . Bu yerda  $SG$  - tarkibiy nomutanosiblik,  $LTCR$  - uzoq muddatli kreditlar,  $K$  - bank tizimi kapitali,  $LTF$  - bir yildan ortiq muddatli depozitlar, banklar va xalqaro moliya institutlari qarzlari, chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari hamda kapitalda takror hisobga olinmagan uzoq muddatli majburiyatlar. Qoplash koeffitsiyenti  $COV_t = (K_t + LTF_t) / LTCR_t \times 100$  formula orqali hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich NSFR o‘rnini bosmaydi; u ochiq statistikada kuzatiladigan uzoq muddatli manbalar bilan kreditlar o‘rtasidagi tafovutni diagnostika qiladi.

Ssenariy prognozi rekursiv usulda tuzildi. Majburiyatlar  $L_{i\alpha\beta}(t,s) = L_{i\alpha\beta}(t-1,s) \times [1 + g^L(t,s)]$  formula bo‘yicha, uzoq muddatli moliyalashtirish esa  $LTF(t,s) = L_{i\alpha\beta}(t,s) \times q^{LTF}(t,s)$  formula bo‘yicha hisoblandi. Kredit portfeli  $CR(t,s) = CR(t-1,s) \times [1 + g^{cr}(t,s)]$  ko‘rinishida, uzoq muddatli kreditlar  $LTCR(t,s) = CR(t,s) \times q^{LTCR}(t,s)$  formula orqali aniqlandi. Bu yerda  $t$  - yil,  $s$  - ssenariy,  $g$  - tegishli o‘sish sur‘ati va  $q$  - ulush ko‘rsatkichidir.

Bazaviy ssenariy amaldagi moliyalashtirish modelining bosqichma-bosqich davom etishini nazarda tutadi: xalqaro kredit liniyalari muhim o‘rinda qoladi, ichki obligatsiyalar bozori sekin kengayadi, inflyatsiya mukofoti va xedjlash xarajatlari asta-sekin kamayadi. Optimistik ssenariy moliya markazi infratuzilmasining samarali ishga tushishi, mahalliy institutsional investorlar talabining oshishi, milliy valyutadagi obligatsiyalar, yashil vositalar va sukukning rivojlanishi hamda valyuta-foiz svoplari bozorining chuqurlashishini nazarda tutadi. Stress ssenariy xalqaro stavkalar va risk mukofotining oshishi, milliy valyutaning qadrsizlanishi, xedjlash xarajatlarning ko‘tarilishi, reytingning bir-ikki pog‘ona pasayishi va tashqi bozorning 6–12 oyga cheklanishini birlashtiradi.

NIM, ROA, CAR, NSFR, NPL va qayta moliyalashtirish xavfi indeksi ssenariylar bilan uyg‘unlashtirilgan kalibrlangan trayektoriyalar sifatida baholandi. Ular Markaziy bankning rasmiy prognozi yoki prudensial normativi emas. Qayta moliyalashtirish xavfi indeksi 0 dan 100 gacha bo‘lib, ko‘rsatkich oshgani sari xavf kuchayadi. Indeksqa o‘rtacha muddatning qisqarishi, yirik qaytarishlarning jamlanishi, bozor kirishining cheklanishi, resurs qiymati va valyuta ulushi ta‘sir qiladi.

Maqolada ssenariy natijalarini boshqaruv qaroriga aylantirish uchun mualliflik erta ogohlantirish konturi taklif qilinadi. Yashil zona bank tizimi barqaror moliyalashtirishni kredit o‘shishiga mos ravishda kengaytirayotganini, sariq zona ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha zaxira qisqarayotganini, qizil zona esa tiklanish rejasini darhol ishga tushirish zarurligini anglatadi. Chegaralar NSFRning xalqaro minimal darajasi, resurslar qiymati bo‘yicha hisoblangan diapazonlar, 2026-yil bazasi va stress ssenariysidagi burilish nuqtalari asosida kalibrlangan. Ular banklarning biznes-modeliga moslashtirilishi kerak va Markaziy bank normativlarini almashtirmaydi.

### **Tahlil va natijalar**

#### ***Boshlang‘ich tarkibiy nomutanosiblik***

2026-yil boshidagi holat uzoq muddatli kreditlash hajmi bilan uni qoplovchi barqaror manbalar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Bank tizimi majburiyatlari 789,4 trln





soʻmni tashkil etgan, bevosita aniqlanadigan uzoq muddatli moliyalashtirish esa 206,0 trln soʻm yoki majburiyatlarning 26,1 foiziga teng boʻlgan. Kapital bilan birgalikda bu manbalar 531,8 trln soʻmlik uzoq muddatli kreditlarning 64,2 foizini qoplaydi. Qolgan 190,5 trln soʻmlik qism qisqaroq muddatli, xulq-atvor jihatidan barqarorligi turlicha boʻlgan majburiyatlar va ularni muntazam yangilash imkoniyatiga tayanadi.

Mazkur holat bank tizimi joriy likvidlik inqirozida ekanini anglatmaydi. NSFR 119,9 foiz, kapital yetarliligi 18,34 foiz va NPL 2,93 foiz darajasida boʻlgan. Muammo koʻrsatkichlarning bugungi darajasida emas, balki kredit portfeli tez oʻsishda davom etgan taqdirda barqaror manbalar ulushi yetarlicha oshmasligidadir. Kreditlar/depozitlar nisbati 144,8 foiz boʻlib, depozitlardan tashqari moliyalashtirish kanallariga sezilarli ehtiyojni koʻrsatadi. Shuning uchun uzoq muddatli resurslarning hajmi, muddati va qiymati birgalikda boshqarilishi lozim.

1-jadval.

**Ssenariy prognozining 2026-yil boshidagi tayanch koʻrsatkichlari\***

Koʻrsatkich	Qiymat	Izoh
Bank tizimi aktivlari	924,8 trln soʻm	rasmiy maʼlumot
Majburiyatlar	789,4 trln soʻm	aktivlar minus kapital
Kredit portfeli	604,0 trln soʻm	rasmiy maʼlumot
Uzoq muddatli kreditlar	531,8 trln soʻm	kreditlarning 88,0 foizi
Depozitlar	417,3 trln soʻm	rasmiy maʼlumot
Uzoq muddatli moliyalashtirish	206,0 trln soʻm	muallif hisob-kitobi
Uzoq muddatli manbalar ulushi	26,1%	majburiyatlarga nisbatan
Qoplash koeffitsiyenti	64,2%	kapital va barqaror manbalar / uzoq kreditlar
Tarkibiy nomutanosiblik	190,5 trln soʻm	uzoq kreditlar minus kapital va LTF
NSFR	119,9%	rasmiy tizim koʻrsatkichi
CAR	18,34%	regulyativ kapital yetarliligi
NPL	2,93%	muammoli kreditlar ulushi

\*Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki maʼlumotlari [1] va muallif hisob-kitoblari.

**Moliyalashtirish trayektoriyalari**

Bazaviy ssenariyda bank majburiyatlari 2030-yilga kelib 1 309,8 trln soʻmga, uzoq muddatli moliyalashtirish 445,3 trln soʻmga yetadi. Uning majburiyatlardagi ulushi 34 foizga va oʻrtacha muddati 3,9 yilga koʻtariladi. Toʻliq xedjlangan qiymat 13,2 foizgacha pasayadi, biroq valyuta ulushi 50 foiz darajasida qoladi. Bunday trayektoriya joriy modelni barqarorlashtiradi, lekin uzoq muddatli aktivlar va manbalar oʻrtasidagi tafovutni tez bartaraf etmaydi.

Optimistik ssenariyda ichki va xalqaro kapital bozorlari bir-birini toʻldiradi. 2030-yilda uzoq muddatli moliyalashtirish 605,5 trln soʻmga yoki majburiyatlarning 42 foiziga yetadi, oʻrtacha muddat 5,1 yilga uzayadi va valyuta ulushi 44 foizgacha kamayadi. Toʻliq qiymatning 10,5 foizgacha tushishi milliy valyutadagi obligatsiyalar, xedjlash bozori, mahalliy institutsional investorlar va takroriy emissiyalar hisobiga moliyalashtirish mukofotining kamayishini anglatadi.

Stress ssenariysida uzoq muddatli moliyalashtirish 2028-yilda 193,3 trln soʻmgacha qisqaradi, uning ulushi 22 foizga tushadi va oʻrtacha muddat 2,5 yilgacha kamayadi. Resurslarning toʻliq qiymati 21 foizga, valyuta ulushi 66 foizga koʻtariladi. 2030-yilda hajm 251,4 trln soʻmgacha tiklansa-da, bu bazaviy trayektoriyadan 193,9 trln soʻm kamdir. Demak, tashqi





bozorning vaqtincha yopilishi banklarni qisqa muddatli ichki depozitlar bilan almashtirishga majbur qiladi va qaytarishlar konsentratsiyasini kuchaytiradi.

2-jadval.


**2030-yilda uzoq muddatli moliyalashtirishning ssenariy parametrlari\***

Ko‘rsatkich	Bazaviy	Optimistik	Stress
Majburiyatlar, trln so‘m	1 309,8	1 441,6	1 005,7
Uzoq muddatli moliyalashtirish, trln so‘m	445,3	605,5	251,4
Uzoq muddatli manbalar ulushi, %	34,0	42,0	25,0
O‘rtacha muddat, yil	3,9	5,1	2,8
Xalqaro resurs nominal qiymati, %	7,5	6,3	10,0
Xeddan keyingi to‘liq qiymat, %	13,2	10,5	18,0
Valyuta ulushi, %	50,0	44,0	65,0
Bozorga kirish	alohida oynalar	barqaror va diversifikatsiyalan gan	6–12 oy cheklanishi

\*Manba: muallifning rekursiv ssenariy hisob-kitoblari. Prognoz Markaziy bankning rasmiy prognozi emas.

1-rasm.

**Uzoq muddatli moliyalashtirish hajmining 2027–2030-yillardagi trayektoriyalari\***



\*Manba: muallif hisob-kitoblari.

**Moliyaviy barqarorlik natijalari**

Moliyalashtirish hajmining o‘shishi faqat kredit portfeli sifatini va barqarorlik ko‘rsatkichlarini yomonlashtirmagan taqdirdagina ijobiy natija hisoblanadi. Bazaviy ssenariyda 2030-yilga kelib kredit portfeli 967,3 trln so‘mga, uzoq muddatli kreditlar 870,6 trln so‘mga yetadi. NIM 4,7 foiz, ROA 2,35 foiz va kapital yetarliligi 18 foiz atrofida saqlanadi. NSFR 124 foizga ko‘tariladi, NPL 2,8 foizgacha pasayadi va qayta moliyalashtirish xavfi indeksi 33 punktga tushadi.

Optimistik ssenariy moliyalashtirishning ko‘proq hajmi bilan birga sifatliroq tarkibini ham nazarda tutadi. 2030-yilda uzoq muddatli kreditlar 1 032,2 trln so‘mni tashkil etib, bazaviy ssenariydan 161,6 trln so‘m yuqori bo‘ladi. NIM 5,1 foizga, ROA 2,75 foizga, CAR 19 foizga va





NSFR 136 foizga yetadi. NPL 2,4 foizgacha, qayta moliyalashtirish xavfi indeksi 20 punktga pasayadi. Bu natija kredit standartlarini yumshatish emas, balki riskka mos narxlash, tarmoq limitlari va resurs muddatining aktiv pul oqimlari bilan mosligini taqozo etadi.

Stress ssenariysining eng xavfli davri 2028–2029-yillarga to‘g‘ri keladi. 2029-yilda NSFR 98 foizgacha tushib, 100 foizlik minimal darajadan pastlaydi; CAR 12,8 foizgacha, ROA 0,4 foizgacha kamayadi, NPL 7 foizga va qayta moliyalashtirish xavfi indeksi 78 punktga ko‘tariladi. 2030-yilda ayrim tiklanish yuz bersa-da, uzoq muddatli kreditlar bazaviy ssenariydan 248,2 trln so‘m kam bo‘ladi. Mazkur natija tashqi foiz, valyuta va bozor kirishi zarbalari bir vaqtda yuz berganda likvidlik xavfi kredit xavfi va kapital bosimiga aylanishini ko‘rsatadi.

Ssenariylarning iqtisodiy ta‘siri ham keskin farqlanadi. Optimistik ssenariyda 2030-yildagi yillik sof foiz daromadining shartli bahosi bazaviy trayektoriyadan qariyb 14,0 trln so‘m yuqori, ROA bo‘yicha moliyaviy natija esa 10,4 trln so‘mga ko‘p bo‘lishi mumkin. Stress ssenariyda sof foiz daromadi bazaviy darajadan 33,2 trln so‘mga, ROA bo‘yicha natija 26,6 trln so‘mga past bo‘ladi. Ushbu baholar buxgalteriya foydasi prognozi emas, balki ssenariylar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatuvchi qiyosiy hisobdir.

3-jadval.


**2030-yilda kredit faolligi va moliyaviy barqarorlikning ssenariy natijalari\***

Ko‘rsatkich	Bazaviy	Optimistik	Stress
Kreditlar, trln so‘m	967,3	1 122,0	740,9
Uzoq muddatli kreditlar, trln so‘m	870,6	1 032,2	622,4
NIM, %	4,70	5,10	3,30
ROA, %	2,35	2,75	0,80
CAR, %	18,0	19,0	13,8
NSFR, %	124	136	103
NPL, %	2,8	2,4	6,5
Qayta moliyalashtirish xavfi indeksi	33	20	68

\*Manba: muallif hisob-kitoblari. Indeks 0–100 oralig‘ida; yuqori qiymat yuqori xavfni bildiradi.

2-rasm.

**NSFRning ssenariylar bo‘yicha dinamikasi\***



\*Manba: muallif hisob-kitoblari; 100 foizlik chiziq xalqaro minimal darajani ifodalaydi.





### Ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari

Ssenariy natijalari asosida uzoq muddatli moliyalashtirish barqarorligini kuzatish uchun yettita indikatorli kontur taklif etiladi. Kontur bir ko'rsatkichni mutlaq mezon sifatida qabul qilmaydi. Masalan, uzoq muddatli manbalar ulushi oshib, lekin to'liq qiymat va xedjlanmagan valyuta pozitsiyasi keskin ko'tarilsa, resurs hajmining o'sishi barqarorlikni kuchaytirmaydi. Xuddi shuningdek, NSFR 100 foizdan yuqori bo'lsa ham, qaytarishlarning bir chorakda jamlanishi va bozor kirishining yopilishi qayta moliyalashtirish xavfini oshiradi.

Yashil zona uzoq muddatli manbalar ulushi kamida 30 foiz, o'rtacha muddat kamida 3,5 yil, xedjdan keyingi to'liq qiymat 17 foizdan past, NSFR 110 foiz va undan yuqori, NPL 4,5 foizdan past hamda qayta moliyalashtirish indeksi 50 punktdan past bo'lishini nazarda tutadi. Sariq zona zaxira qisqarayotganini ko'rsatadi va aktivlar hamda majburiyatlar qo'mitasining choraklik emas, oylik monitoringiga o'tishni talab qiladi. Qizil zona NSFRning 100 foizdan pastlashi, NPLning 6 foizdan oshishi, to'liq qiymatning 19 foizdan yuqorilashi yoki qayta moliyalashtirish indeksining 70 punktdan oshishi bilan tavsiflanadi.

Chegaralar bir-birini to'ldiruvchi triggerlar sifatida ishlashi kerak. Ikki yoki undan ortiq indikator sariq zonaga kirsam, bank yangi uzoq muddatli aktivlar o'sishini qayta ko'rib chiqadi, yirik qaytarishlar kalendarini tekislaydi, xedjlash ulushini oshiradi va rezerv kredit liniyalarini tayyorlaydi. Bitta indikator qizil zonaga kirsam yoki uchta sariq signal bir vaqtda yuzaga kelsa, tiklanish rejasi faollashtiriladi. Bunda dividendlarni cheklash, foydani kapitallashtirish, subordinatsiyalangan resurs jalb qilish, aktivlarni sotish yoki sek'yuritizatsiya qilish, valyuta pozitsiyasini qisqartirish va kredit o'sishini vaqtincha sekinlashtirish choralariidan foydalaniladi.

4-jadval.

### Uzoq muddatli moliyalashtirish bo'yicha ssenariyli erta ogohlantirish konturi\*

Indikator	Yashil zona	Sariq zona	Qizil zona	Asosiy boshqaruv javobi
Uzoq muddatli manbalar ulushi	$\geq 30\%$	25–30%	$< 25\%$	manbalarni uzaytirish va diversifikatsiya
O'rtacha muddat	$\geq 3,5$ yil	2,8–3,5 yil	$< 2,8$ yil	qaytarishlar kalendarini tekislash
To'liq qiymat	$< 17\%$	17–19%	$> 19\%$	yangi bitim narxini qayta ko'rib chiqish
Valyuta ulushi*	$\leq 50\%$	50–60%	$> 60\%$	tabiiy yoki derivativ xedj
NSFR	$\geq 110\%$	100–110%	$< 100\%$	likvidlik va barqaror manbalar tiklanish rejasi
NPL	$< 4,5\%$	4,5–6,0%	$> 6,0\%$	aktivlar sifati va proviziyalarni kuchaytirish
Qayta moliyalashtirish indeksi	$< 50$	50–70	$> 70$	rezerv liniya va muqobil bozor kanali

\*Izoh: \* valyuta ulushi xedjlash va valyuta daromadlari bilan birgalikda baholanadi. Chegaralar muallifning tahliliy orientirlari bo'lib, prudensial normativ emas.

### Amaliy joriy etish yo'nalishlari

Birinchi yo'nalish Markaziy bank darajasida yagona choraklik moliyalashtirish ma'lumotlar bazasini shakllantirishdir. Unda har bir bank bo'yicha majburiyatning dastlabki va qoldiq muddati, valyutasi, kreditor turi, foiz stavkasining qat'iy yoki o'zgaruvchanligi, garov va kovenantlar, muddatidan oldin qaytarish shartlari, yirik to'lovlar konsentratsiyasi va xedjlash darajasi aks ettirilishi lozim. Ochiq hisobotlarda ushbu ko'rsatkichlarning to'liq qatori mavjud





bo‘lmagani sababli ssenariy baholari hozircha qisman ekspert kalibrlashiga tayanadi. Yagona baza panel ekonometrik model va likvidlik stress-testini ancha aniqlashtiradi.

Ikkinchi yo‘nalish tijorat banklarida erta ogohlantirish konturini aktivlar va majburiyatlar qo‘mitasi faoliyatiga kiritishdir. Har chorakda bazaviy, bozor yomonlashuvi va tashqi bozor yopilishi ssenariylari qayta hisoblanadi. Bank kamida 18–24 oy oldin yirik to‘lov bo‘yicha asosiy va muqobil qayta moliyalashtirish manbasini belgilashi kerak. Reja faqat xalqaro obligatsiyani qayta chiqarishga tayanmasligi, balki sindikatsiyalangan kredit, ta‘minlangan moliyalashtirish, milliy valyutadagi obligatsiya, aktivlarni sotish yoki sek’yuritizatsiya qilish va kapitalni oshirish variantlarini o‘z ichiga olishi lozim.

Uchinchi yo‘nalish 2027-yildan boshlab turli biznes-modellarga ega banklarda pilot monitoringni joriy etishdir. Davlat ulushi mavjud va kreditlar/depozitlar nisbati yuqori banklarda resurs muddatini uzaytirish va to‘lovlar konsentratsiyasini kamaytirish ustuvor bo‘ladi. Kuchli depozit bazasiga ega xususiy banklarda esa depozitlarning xulq-atvor barqarorligi, yirik omonatchilar konsentratsiyasi va bozor narxlashiga e‘tibor qaratiladi. Xorijiy strategik investor ishtirokidagi banklarda guruh ichki moliyalashtirishga qaramlik va favqulodda holatda mablag‘larni qaytarib olish ehtimoli baholanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish nazorat va bank ichki monitoringi o‘rtasidagi triggerlarni uyg‘unlashtirishdir. Sariq zona bankning ichki boshqaruv choralari faollashtiradi, qizil zona esa Markaziy bankka yangilangan likvidlik va kapital tiklanish rejasini taqdim etishni talab qilishi mumkin. Bunday yondashuv nazoratning jazolovchi xususiyatini emas, oldindan ogohlantiruvchi xususiyatini kuchaytiradi. Natijada resurs narxi oshib ketganidan yoki bozor yopilganidan keyin emas, balki xavf belgilari paydo bo‘lgan davrda choralar ko‘riladi.

Beshinchi yo‘nalish yashil va islomiy vositalarni umumiy risk konturidan ajratmaslikdir. Yashil obligatsiya yoki sukukning maqsadli xususiyati moliyalashtirish xavfini avtomatik kamaytirmaydi. Ularning to‘liq qiymati, valyuta tarkibi, asosiy aktivlarning pul oqimi, investorlar konsentratsiyasi va qaytarish muddati ham umumiy mezonlar bo‘yicha baholanishi kerak. Shu bilan birga, maqsadli vositalar ekologik natija, energiya va suv tejamliligi, moliyalashtirilgan korxonalar hamda yaratilgan ish o‘rinlari bo‘yicha qo‘shimcha hisobot bilan to‘ldiriladi.

#### ***Natijalarni muhokama qilish***

Olingan natijalar xalqaro adabiyotdagi moliyalashtirish barqarorligi kredit taklifiga va muddatlar transformatsiyasiga ta‘sir qilishi haqidagi xulosalarni O‘zbekiston sharoitida tasdiqlaydi. Bazaviy va optimistik ssenariylarda uzoq muddatli manbalar ulushi va o‘rtacha muddatning oshishi kredit portfelining kengayishi, NSFRning yaxshilanishi va qayta moliyalashtirish xavfining pasayishi bilan birga kechadi. Bu Kladaakis va hammualliflar [9], Fudulache va Goetz [10] hamda Müller va hammualliflar [8] natijalariga mos keladi.

Shu bilan birga maqola hajmni ko‘paytirishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Stress ssenariysida tashqi resurslarning nominal qiymati va xedjlash xarajati ko‘tarilganda, uzoq muddatli moliyalashtirishning valyuta ulushi ortib, o‘rtacha muddati qisqaradi. Bunday vaziyatda bank kreditlarni kengaytirishni davom ettirsa, NIM va ROA qisqaradi, NPL oshadi va kapital zaxirasi kamayadi. Demak, moliyalashtirishning maqsadi maksimal hajm emas, riskka mos to‘liq qiymat va aktivlar pul oqimiga mos muddatdir.

Maqolaning cheklovi shundan iboratki, ochiq ma‘lumotlarda barcha banklar kesimida majburiyatlarning qoldiq muddati, xedjlangan qiymati, kreditorlar konsentratsiyasi va qaytarishlar kalendari bo‘yicha to‘liq choraklik panel mavjud emas. Shu sababli ayrim parametrlar ekspert-ssenariy usulida kalibrlangan. Kelgusida yagona nazorat bazasi shakllantirilgach, ssenariylar banklar kesimidagi mikro ma‘lumotlar, Monte-Karlo simulyatsiyasi, likvidlik “survival horizon”i va tarmoqlar bo‘yicha kredit xavfi modullari bilan kengaytirilishi mumkin.

#### **Xulosa**

Tadqiqot O‘zbekiston bank tizimida uzoq muddatli kreditlashning barqaror manbalar o‘lishidan tezlashgani sababli tarkibiy nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatdi. 2026-yil boshida





kapital va aniqlanadigan uzoq muddatli manbalar 531,8 trln so‘mlik uzoq muddatli kreditlarning 64,2 foizini qoplagan, hisoblangan tafovut 190,5 trln so‘mni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich joriy likvidlik yetishmovchiligini emas, balki kredit o‘sishi davom etsa, qayta moliyalashtirishga qaramlik kuchayishi ehtimolini bildiradi.

Bazaviy ssenariy bo‘yicha 2030-yilda uzoq muddatli moliyalashtirish 445,3 trln so‘mga, uning majburiyatlardagi ulushi 34 foizga, NSFR 124 foizga yetadi. Optimistik ssenariyda hajm 605,5 trln so‘m, ulush 42 foiz va NSFR 136 foizni tashkil etadi. Ushbu trayektoriya milliy valyutadagi bozor vositalari, institutsional investorlar, yashil va islomiy instrumentlar hamda xedjlash bozorining birgalikda rivojlanishini talab qiladi.

Stress ssenariy 2028–2029-yillarda eng katta xavfni aniqladi. 2029-yilda NSFR 98 foizgacha, ROA 0,4 foizgacha va CAR 12,8 foizgacha pasayishi, NPL 7 foiz va qayta moliyalashtirish xavfi 78 punktgacha oshishi mumkin. Bu banklar tashqi bozordagi qulay davrda ham tiklanish rejasi, rezerv likvidlik liniyasi va muqobil moliyalashtirish kanalini oldindan tayyorlashi kerakligini ko‘rsatadi.

Muallif tomonidan taklif etilgan ssenariyli erta ogohlantirish konturi uzoq muddatli manbalar ulushi, o‘rtacha muddat, to‘liq qiymat, valyuta ulushi, NSFR, NPL va qayta moliyalashtirish indeksini yagona boshqaruv mantiqiga birlashtiradi. Ikki sariq signal paydo bo‘lsa kuchaytirilgan monitoring, bitta qizil yoki uchta sariq signal paydo bo‘lsa tiklanish rejasini ishga tushirish tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv alohida banklarning tayyorlik indeksidan farqli ravishda tizim dinamikasi va ssenariy burilish nuqtalarini kuzatishga xizmat qiladi.

Markaziy bankka majburiyatlarning qoldiq muddati, valyutasi, qiymati, kreditor turi, qaytarishlar konsentratsiyasi va xedjlash bo‘yicha yagona choraklik ma’lumotlar bazasini yaratish tavsiya etiladi. Baza asosida tizim va individual banklar bo‘yicha uzoq muddatli moliyalashtirish stress-paneli shakllantirilishi, natijalar nazorat baholashi va banklarning tiklanish rejalariga integratsiya qilinishi lozim.

Tijorat banklariga uzoq muddatli moliyalashtirish strategiyasini aktivlar va majburiyatlarni boshqarish tizimining majburiy qismi sifatida tasdiqlash tavsiya etiladi. Strategiyada uch yillik ehtiyoj, to‘liq riskka mos qiymat, valyuta va konsentratsiya limitlari, 18–24 oylik qayta moliyalashtirish kalendari hamda tashqi bozor yopilgandagi muqobil harakatlar aks etishi zarur.

Taklif etilgan yondashuvni 2027-yilda turli biznes-modellarga ega banklarda pilot tarzda sinash, 2028-yilda choraklik hisobot formatini standartlashtirish, 2029-yilda stress-triggerlarni nazorat jarayoniga integratsiya qilish va 2030-yilda ularning kredit faolligi, moliyalashtirish qiymati hamda moliyaviy barqarorlikka ta’sirini baholash maqsadga muvofiq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Information on major indicators of commercial banks as of January 1, 2026. Tashkent, 2026. URL: <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/3326280/>
2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Monetary Policy Guidelines for 2026 and 2027–2028. Tashkent, 2026. URL: <https://cbu.uz/en/monetary-policy/publications/trend/>
3. President of the Republic of Uzbekistan. New finance and digital technology initiatives presented. 25 March 2026. URL: <https://president.uz/en/lists/view/9048>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-martdagi PF–48-son «Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/ru/docs/8103325>
5. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 27-martdagi O‘RQ–1126-son Qonuni. Islom bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida. URL: <https://lex.uz/docs/8109715>
6. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program - Financial System Stability Assessment. IMF Staff Country Report No. 2025/145. Washington, DC, 2025. DOI: 10.5089/9798229015103.002.





7. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Technical Assistance Report - Macro Stress Testing of the Uzbek Banking Sector. Technical Assistance Report No. 2025/032. Washington, DC, 2025. DOI: 10.5089/9798229006361.019.
8. Müller C., Ossandon Busch M., Sarmiento M., Pinzon-Puerto F. Fragile wholesale deposits, liquidity risk, and banks' maturity transformation. BIS Working Papers. 2025. No. 1263. 51 p. URL: <https://www.bis.org/publ/work1263.htm>
9. Kladakis G., Chen L., Bellos S.K. Wholesale funding and liquidity creation. Review of Quantitative Finance and Accounting. 2022. Vol. 59. P. 1453–1499. DOI: 10.1007/s11156-022-01081-9.
10. Fudulache A.-E., Goetz M.R. Long-term deposit funding and demand for central bank funds: Evidence from targeted longer-term refinancing operations. Deutsche Bundesbank Discussion Paper. 2023. No. 12/2023. 59 p.
11. Cappelletti G., Marqués-Ibáñez D., Reghezza A., Salleo C. As interest rates surge: Flighty deposits and lending. ECB Working Paper Series. 2024. No. 2923. 55 p.
12. Khalifeh I., Benhmad F., El Moussawi C., Tarazi A. Net Stable Funding Ratio: Implication for bank stability in Europe. Global Finance Journal. 2025. Vol. 67. Article 101144. DOI: 10.1016/j.gfj.2025.101144.
13. Basel Committee on Banking Supervision. Report on the 2023 Banking Turmoil. Basel: Bank for International Settlements, 2023. URL: <https://www.bis.org/bcbs/publ/d555.pdf>
14. European Bank for Reconstruction and Development. Financial Sector Strategy 2026–30. London: EBRD, 2025. URL: [https://www.ebrd.com/content/dam/ebrd\\_dxp/assets/pdfs/strategies-and-policies/financial-sector-strategy/financial-sector-strategy-2026-2030.pdf](https://www.ebrd.com/content/dam/ebrd_dxp/assets/pdfs/strategies-and-policies/financial-sector-strategy/financial-sector-strategy-2026-2030.pdf)
15. Isakov O. Impact of loan to deposit ratio on the performance of commercial banks in Uzbekistan. Economics and Innovative Technologies. 2023. Vol. 11. No. 1. P. 45–52. DOI: 10.55439/EIT/vol11\_iss1/a5.
16. Ruziyev B.S. Tijorat banklarida likvidlilik muammolari va uning yechimlari. Economics and Innovative Technologies. 2025. Vol. 13. No. 5. B. 18–23. DOI: 10.55439/EIT/vol13\_iss5/711.
17. World Bank. Boosting SME Finance for Growth: The Case for More Effective Support Policies. Washington, DC: World Bank, 2024.
18. United Nations Conference on Trade and Development. Financing development: External flows of financial capital to developing countries and their cost. Geneva: United Nations, 2026.

